

RITM VA USUL TUSHUNCHASINING FARQLILIK VA BOG'LIQLIK JIHATLARI

Omonjonova Odinaxon

O'zbekiston davlat konservatoriysi

"Kompozitorlik va cholg'ulashhtirish" kafedrasи

1-bosqich magistranti

Tursunova Xurshida Atabayevna

Ilmiy Raxbar: Professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada ritm va usul tushunchalarining farqli va o'zaro bog'liqligi borasida ilmiy yondashuvlar jamlangan. Shu bila bir qatorda Sharq va G'arb olimlarining ritm borasidagi qarashlari va ritmik usullarning musiqadagi o'rni borasida olib borilgan olimlarning fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlari: ritm, usul, poliritmiya, kuy, Forobiy, Ilmi- Iyqo, "Kitob un-nag'am", davri turkiy, davri ravon, zARB.

РАЗЛИЧНЫЕ И СВЯЗАННЫЕ АСПЕКТЫ ПОНЯТИЯ РИТМА И УСУЛА

Аннотация: В данной статье обобщены научные подходы к различиям и взаимозависимости понятий ритма и метода. Наряду с этим представлены мнения восточных и западных ученых о ритме и роли ритмических условов в музыке.

Musiqa ifoda vositalaridan biri bo'lmish ritm kuyning asosini tashkil etadi. Bu borada ko'plab olimlar o'z fikrlarini qoldirganlar. Ushbu atama nafaqat musiqada, balki boshqa sohalarda ham keng qo'llaniladi. Ritm (yunoncha ῥ̄ο - oqim) keng ma'noda har qanday jarayonlarning vaqt bo'yicha oqimi shakli masalan: hayot ritmi, yurak urishi ritmi, shakl ritmi kabilarni misol keltirish mumkin. Ritm haqidagi ta'limotning asoschisi qadimgi yunon faylasufi va musiqa nazariyotchisi Aristoksen hisoblanadi.


Ritm – umumiy holda, tabiiy hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishi. Ritm siklli va vaqtli bo'ladi. Hodisa va jarayonlarning tabiatda muayyan tartibda takrorlanib turishi sikllilik deyiladi.

Musiqiy ritm musiqa tilining ohang, garmoniya, tekstura, tematik va boshqa elementlarining vaqtinchalik jihat, shuningdek, tovushlar orasidagi vaqtdagi munosabatlar tizimidir.

Har bir kuyning o'ziga xos ritmik tuzilishi bo'ladi.




Tor ma'noda ritm musiqada nota cho'zimlarining uzun-qisqaligini ifodalaydi. Ritmik bo'linishning asosiy turi ikkilikdir



Ritmik tuzilish tovush davomiyligining ketma-ketligidir.

Musiqada ritmik bo'linishning maxsus turlari ham qo'llaniladi - davomiylikni 2 ga emas, balki teng qismlarning ixtiyoriy soniga bo'lish - uchta (triol), besh (kintol), olti (sekstol), yetti (septol) va hk.

Ritmik bo'linishning ikki yoki undan ortiq turlarining ketma-ket kombinatsiyasi (masalan, duolet va tripletlar birikmasi) poliritm deb ataladi:



Musiqiy ritm inson tabiatiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Qo'shiqlar, raqslar, marshlar va shu kabi janrlar, asoson, ritm va usulga tayanadi.

Sharq nazariyasida musiqa ilmining ikkita asosiy yo'nalishi mavjud bo'lib, bulardan birinchisi – ilmi iyqodir.

Iyqo (arab. – tuzmoq, sozlamoq, belgilamoq) – O'rta asr musulmon Sharqi musiqa ilmining asosiy tushunchalaridan biri. Maxsus atama sifatida aruz va musiqa ilmining asoschisi hisoblanmish Xalil ibn Ahmadning (768-y.da vafot etgan) "Kitobul iyqo" va "Kitobunnag'am" asarlarida ilk bor qo'llanganligi taxmin qilinadi. Qadimiy risolalarda iyqo atamasining 10 dan ortiq ta'riflari keltiriladi. Shulardan asosiylari: 1) musiqiy harakat (intiqol)ning vaqt (yoki izchillik, takroriylik) jihatidan namoyon bo'lishi; 2) musiqiy vaqt o'lchami, faraz qilinuvchi eng kichik zamon birligi ("miqyol ul-avval", Forobiy). Ushbu ma'noda zamonaviy G'arb musiqa ilmidagi metr va Sharq aruz nazariyasidagi vazn tushunchalariga mos keladi; 3) musiqiy vaqt o'lchamlarining sifat

ko'rsatgichi, ya'ni turli o'lcham (metr)larning o'zaro nisbatlari, musiqiy ritm tushunchasiga mos keladi. Agar "iyqo-metr" musiqiy vaqt jarayonini nazariy anglashning dastlabki bosqichi bo'lsa, "iyqo-ritm" ushbu ilmiy mavhumlashtirishning oliy darajasidir.

Ilmi iyqo (arab. – iyqo haqidagi ilm) – ilmi musiqiyning tarkibiy qismi. Yaxlit va tugal nazariya sifatida Abu Nasr Forobiyning asarlari ("Kitobul musiqa al-kabir", "Kitobul iyqo'ot", "Kitob fi ixsoul iyqoot" va b.)da ilk marotaba ilmiy asoslab berilgan va keyinchalik, Ibn Sino ("Kitob ash-shifo") va Qutbiddin ash-Sheroziy ("Durratut-Toj li g'urratid-deboj") risolalarida rivojlantirilgan. Ilmi iyqo ta'limotining asosiy unsuri – naqr (nuqta, eng kichik va bo'linmas zamon)dir. Davr tarkibidagi naqlar soni va sifati jihatidan iyqolar ikki sinfga bo'linadi: muvassal (ulangan, uzlucksiz) va mufassal (bo'lingan, ayrılma). Har bir sinf, o'z navbatida, bir necha turlardan iborat. X asr badiiy ijodiyotida qo'llanilgan jami ritmik shakllarni Forobiy 12 asl (usul)ga asoslangan yaxlit iyqolar tizimi sifatida bayon etgan. Mazkur 12 usullar musiqiy amaliyotda doimo yangicha badiiy estetik sifat ("vujud al-afzal") darajasida namoyon bo'ladi. Iyqo usullariga turli ritmik, akustik, dinamik vositalar yordamida kerakli badiiy mazmun kiritish ma'dulot (tenglamalar) yoki tag'irot (o'zgartuvlar, almashtiruvlar) deb ataladi. Ilmi iyqoning ta'limoti "Forobiy jahonda birinchi bo'lib ilgari surgan genial g'oya edi" (J.D.Sava). Badiiy vaqt («al-on»)ning yaxlitligi haqidagi Forobiyning fikriga G'arbiy Yevropa olimlari XX asrning 2-yarmidagina (Klod Levi Stross, Susanna Langer va b.) yetib kelishdi va tan olishdi.

Usul va ritm tushunchalari bir-biriga ma'no jihatidan qanchalik o'xshash bo'lmasin, ammo ba'zi elementar xossalari bilan bir-biridan farq qiladi.


Usul – doira va nog'oralarda ijro etiladigan zarb tuzilmalaridir. Ya'ni ostinato tarzida takrorlandigan ritm ko'rinishi bo'lib, sharq musiqasida doyra jo'rligida ijro etiladi. Mazkur kichik ritmik tuzilma sharq monodiyasida ifodaviy va kompozitsion jihatdn eng tugallagangan asos sifatida gavdalananadi. Forobiy, Safiuddin al-Urmaviy, ash-Sheroziy va boshqalarning musiqa risolalarida juda ko'p qadimiy usullar keltirilib, ular davri avsat, davri turkiy, davri ravon, davri asl, davri kabir, davri saqil, duyak, chorzarb, miyatayn, ufar, zarbul fath, muxammas, hafif singari nomlar bilan atalgan. Bu usullarning ko'pi bizgacha ustoz san'atkorlar ijodi orqali yetib kelgan. O'zbek an'anaviy musiqasida "Katta o'yin", "Shodiyona" kabi usul turkumlari mavjud.

Ritm va usulning farqlarini bir nechta punktlarda ko'rib chiqamiz.

1.

Allegro moderato

Ф.Шуберт. Симфония №8



Yuqoridagi fragment misolida ko‘radigan bo‘lsak, ritmik suratni ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni berilgan parcha yarimtalik va chorak notalardan tashkil topgan. Ammo ushbu nota misolida usulni ko‘rmaymiz. Usul ritmik suratdan tashkil topadi, lekin har qanday ritmik surat ham usulga tayanib yaratilmaydi. Birinchi farq shunda.

2.

“Buzruk” maqomidan olingan yuqoridagi parchada berilgan doira usulini ko‘rishimiz mumkin. 4 taktli tasnif usuli butun bir cholg‘u kuyining asosini tashkil etadi va asar so‘nggigacha umumiyligi shakli saqlangan holda takrorlanadi. Demak, usulga takroriylik xos. Ritm esa bundan mustasno holda erkin rivojlanadi va istalgan suratda ifodalanadi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, ritm va usul bir-biriga uzviy bog‘liq. Asar usuli ritmik suratdan kelib chiqib tanlanadi. Usulning tuzilishi va asosini ritmik bo‘laklar hosil qiladi. Bastakorlik ijodining ildizlari bo‘lmish mumtoz asarlarga nazar solisak, usullarning ahamiyati juda yuqori ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Asrlar davomida shakllanib kelayotgan bu an’ana o‘zbek milliy kompozitorlik muktabida ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqada-ritm-va-ritmik-harakatlarning-shakllanish-jarayonlari>.
2. Matyakubova S. Maqom ritmlari solfedjio darslarida. Toshkent-2011.
3. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent -2006.
4. Ю. Г. Кон "Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и ее гармонизации" Ташкент-1979